



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## UILYAM SHEKSPIR IJODIDA “MAKBET” TRAGEDIYASINING TUTGAN O’RNI

**Abdurasulova Go’zalxon.**

*Qo’qon Universiteti Xorijiy tillar va adabiyot fakulteti 2- kurs talabasi*

*Ilmiy Rahbar: Tamanno Vohidova*

**Anotatsiya:** ushbu maqola Uilyam Shekspirning mashhur tragediyasi “Makbet” asaridagi peyzaj, ilgari surilgan g’oyalar va ijodkorning ijod mahsuli yaratilishi haqida.

**Kalit so’zlar:** Uilyam Shekspir , obraz, pyesa, adabiyot, sonnet, Makbet, ambitsiya

**Abstract:** This article is about the landscape, the ideas presented and the creation of the creative product of the creator on the famous tragedy ‘‘Macbeth’’ by WILLIAM SHAKESPEARE.

**Key words:** William Shakespeare , image, sonnet, literature, Macbeth,

Ingliz adabiyoti ko’p asrlik tarix, buyuk adiblar, milliy xarakter xususiyatlarni aks ettiruvchi betakror asarlardir. Biz bu buyuk mualliflarning kitoblari bilan ulg’ayamiz, ularning yordami bilan rivojlanamiz. Ingliz yozuvchilarining jahon adabiyotidagi tutgan o’rnini va unga qo’shgan hissasini bir so‘z bilan ifodalash mushkuldir.

Buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir insoniyat yaratgan daho ijodkorlardan biridir. Uning xalqparvarlik, hurfikrlik,adolat, e兹gulik, yuksak insoniy muhabbat g’oyalarini ulug’lab yozgan dramalari va nafis sonetlari asrlar osha barhayot yashab kelmoqda.

Jahon san’ati tarixini Shekspirsiz tasavvur qilish qiyin. Uning teatr san’ati rivojiga bo’lgan ta’siri beqiyos. Uning tragediyalari jahon adabiyoti durdonalari safidan o’rin olgan. Shekspir asarlari bugungi kunda ham dunyo sahnasidan tushmay kelayotir. Shuncha samarali mehnati va shon-shuhuratiga qaramay, Uilyam Shekspir hech qanday mukofot olmagan, diplom bilan ham taqdirlanmagan...

Angliyaning Eyvon daryosi bo’yida joylashgan kichkinagina Stratferd shaharchasi barcha xaritalardan ham topilavermaydi. Bu nomni xaritadan izlab topib, eslab qolsangiz, yaxshi. Negaki bu mitti shaharda to’rt yarim asr muqaddam buyuk ingliz shoiri va dramaturgi Uilyam Shekspir 1564-yil 23-Aprel dunyoga kelgan. Ammo bu ma’lumotlar qanchalik to’g’ri hali aniq emas. Shekspirning bolaligi va o’smirligi haqida ko’p narsa ma’lum emas. Ba’zi bir ma’lumotlarga ko’ra Shekspir o’smirligida yaxshi ta’lim olgan deb aytilgan, ammo bazi bir tajribalar shuni ko’satadiki ,u bolaligida o’qiy olmagan , chunki otasi qashshoqlashib qolgan deb aytiladi.

Uilyam voyaga yetganida o’z shahridan qochib ketishga majbur bo’ladi. Shekspirning hayoti yoshligidan boshlab oson kechmagan. Nihoyat, u Londonga borib (ehtimol tasodifan), teatrga ishga kirgan. Teatrda Shekspir kichik rollarni ijro etdi. Uning aktyorlik mahorati bo’lgan , ammo u mashhur aktyor bo’la olmadi, ammo sahna hayotini yaxshi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



o'rgandi. Bu narsa u teatr uchun pyesalar yoza boshlaganida juda katta yordam berdi. To'g'ri, Shekspir o'zidagi dramaturgliq iste'dodini namoyon eta boshlaganidan tortib, uning hayoti sirdan qaraganda bir xil kecha bordi. Aftidan, u deyarli hech qayerga bormagan va o'zining hamma vaqtini yozuv stoli yonida yoki sahnada – o'z pyesalarining qo'yilishiga yordam bergen holda o'tkazgan. Lekin uning tragediya va komediyalari qahramonlari sayohatda bo'ladilar, jang qiladilar, kurashadilar. Shekspir yashagan davr og'ir, notinch, jo'shqin davr edi. Angliya urush olib borar, yangi mustamlakalarni zabit etardi. Voqeа qaysi davr yoki qaysi mamlakatda ro'y berishidan qat'i nazar – mana shu jo'shqin davr mashhur dramaturgning har bir asarida o'z aksini topdi.

Shekspir ko'p pyesalar yaratdi. Ulardan biri – Sharqdagi mashhur ishqiy dostonlar – <<Layli va Majnun>>, ga o'xshash bo'lgan «Romeo va Julyetta» – oilalar o'rtasidagi shafqatsiz dushmanlik yosh sevishganlarni halok etishi haqidagi go'zal va mungli afsonadir.

«Hamlet» tragediyasi aldov vaadolatsizlikka qarshi kurashib, bu tengsiz kurashda halok bo'lgan yigit tarixi. 1612-yilda Shekspir so'nggi dramasi «Bo'ron»ni yozgach, poytaxtdan ketadi va o'limiga qadar ona shahri Stratfordda yashaydi. Nafaqat London, balki yozuvchilikni ham tark etib, yer-maydon olib sotish bilan shug'ullandi. Shekspir tragediyalarini yuqori bosqichga ko'targan omillar – asarlar mavzuining boyligi, g'oyaviy yo'naliشining aniqligi, hayotning tabiiy ifodalanishidir. Shu boisdan uning dramatik ijodi dunyo teatrlari repertuarlaridan mustahkam o'rinn egalladi.

Shekspirning «Hamlet», «Otello», «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar», «Qirol Lir», «Koriolan» kabi tragediyalari, «Veronalik ikki yigit» komediyasi Hamza nomidagi akademik drama teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)da katta maho-rat bilan namoyish etilgan. Ayniqsa, ulug' aktyorimiz Abror Hidoyatov ijro etgan Otello roli ancha muvaffaqiyat qozongan. Kishilar Shekspir asarlarini o'qiydilar va sahnada tomosha qiladilar, undagi insonlar taqqidi va xarakteri haqida bahslashadilar. Ba'zan ular, buning siri nimada, deb o'ylab qoladilar ham. Nima uchun Shekspirning pyesalari unutilmaydi, o'lmaydi, nima uchun tomoshabinlar hali ham ularni ko'rishni istaydilar, aktyorlar esa, bu pyesalarda rol ijro etishni orzu qiladilar? Shekspir kim to'g'risida yozmasin: Daniya shahzodasimi yoki Misr malikasimi, Venetsiya sarkardasimi, u hamma vaqt barcha davrlarda kishini haya jonga soladigan yuksak insoniy hissiyotlar haqida hikoya qiladi.

Shekspir pyesalardan tashqari she'rlar – sonetlar ham yaratgan. Uning besh jildli «Tanlangan asarlari» o'zbek tilida chop etilgan. Albatta, Shekspir asarlarini o'qish qiyin, lekin juda qiziqarli.





Shekspir ijodida — "Makbet" tragediyasi alohida ajralib turadi. Bu asar Shekspirning „Qirol Lir“ asari kabi eski asarning yangin talqini emas , balki o'zining mashhur asarlaridan biridir.

Shekspir bu tragediyada ambitsiya, qudrat, fofija kabi mavzular hamda inson tabiatining qorong'u tomonlarini o'rganadi.

Aytish mumkinki, bu asardagi qahramonlar boshqa tragediyalar kabi sevgi va muhabbat uchun o'lim bilan tugamaydi balki Makbetning qirollikka intilishi tufayli do'sti Banqo va qirolicha Lady Makbet bilan birgalikda jinoyatga qo'l urushi bilan va Makbetning fojiali hayoti bilan yakun topadi.

— "Makbet" asari 1606-yilda sahna yuzini ko'radi va XX asargacha qayta qayta sahnalashtirilib, ijro etilgan. Pyesa asosida film suratga olish esa 1948yildan beri boshlangan bo'lib, ilk film Orson Welles tomonidan suratga olindi. Shu tariqa film namoyishi 2015-yilgacha davom etadi. Xo'sh, butun dunyo bo'ylab keng miqyosda mashhurlikka erishgan tragediya nima haqida va u o'ziga xos qanday jihatlarga ega?

Pyesa Shotlandiyada joylashgan bo'lib, bu asarning markaziy rolida Makbet ismli qahramon turadi. Makbet jangdagi jasoratidan so'ng uch sehrgar ayol tomonidan "Shotlandiya qiroli" bo'lishi bashorat qilinadi. Bu bashorat Makbetning ichki ambitsiyalarini uyg'otadi va u qirollikka intilish yo'lida o'zining do'sti Banqo va qirolicha Lady Makbet bilan birgalikda jinoyatga qo'l uradi. Makbetning ambitsiyasi uni qirollik taxtiga olib chiqadi ,lekin bu yo'ldagi qilmishlari uni ruhiy jihatdan iztirobga solidi. Voqealar rivoji davomida u o'zining jinoyatlarini yashirish maqsadida ko'plab qotilliklar qiladi. Asardagi bir necha qahramonlar bilan urush holatlari kuzatiladi. Bu asardagi ikkinchi asosoiy obraz Lady Makbet ham o'zining qilmishlaridan azob chekadi va ohir -oqibat ruhiy muommolarga duch keladi. Asar davomida Makbetning kuchga bo'lgan intilishi va uning fojiali natijalari kuzatiladi. Ammo bu tragediya noshqa pyesalarga o'xshamaydi , ya;ni



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



asosiy obraz qahramonlari bir – birini o’ldirmaydi, ammo Makbetning o’zining dushmanlari tomonidan mag’lub bo’lishi va hayoti fojiali tugashi bilan yakunlanadi. Biroq bu fojialarning asar mazmun-mohiyatiga bevosita ta’siri bormi? Bizningcha, ha. Turli psixologlar ushbu asarni o’z nazariyalari bo'yicha tahlil etishar ekan, obrazlar xarakteri va fojiasiga alohida yondashishni ma‘qul ko\_radi.

Ba’zi tahlilchilar fikrlashiga ko’ra Makbet asarida ambitsiya va qudrat istagi juda yuqori . Bundan tashqari psixoanalitik tahlilga ko’ra bu asarda aybdorlik va ruhiy iztirob va galyutsinatsiyalar uchraydi. Masalan Makbetning ko’rinishi va galyutsinatsiyalari uning ichki dunyosini murakkabligini aks ettiradi. Bu galyutsinatsiyalar uning ruhiy holatini yanada yomonlashtiradi va uning qilmishlariga asos soladi.

Umuman olganda, —Makbet tragediyasi inson tabiatidagi qorong'u tomonlarinini o’rganadigan chuqur asar . Buning yagona sababi shundaki ambitsiya va qudratning inson ruhiyga qanday ta’sir qilishi haqida ogohlantiruvchi hikya sifatida adabiyotda muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, pesa o’sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotida shakllanib kelayotgan kapitalistik munosabatlar va o’z qirolini o’rniga qirol bo’lish kabi hasadgo’ylilik ro’yi-rost tanqid qilingandi.

Makbet fojiasini k’oplab taniqli o’zbek shoirlari tarjima qilgan. Bu asarni ilk bor atoqli yozuvchimiz Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lpon 1930-yillarda tarjima qilgan. Bundan so’ng mashxur ijodkorlarimiz yana qayta tarjima qilishgan. Yana bir o’zbek ijodkori Eshonqul A’zamov ushbu asarni 1956-yilda o’zbek tiliga tarjima qiladi va uning o’quvchilarga tushunarli qilib yozilgan uslubdagi ushbu klassik asari adabiyotshunoslar tomonidan yuqori darajada baholanadi.

### FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Anikst, Shekspir, M.,1964;
2. Anikst, Shekspir, remeslodrammatura M., 1974;
3. Sulaymonova F., Shekspir, O’zbekistonda, T., 1971;

